O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DM

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-01, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich
Sana: 10-02-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

230289 - SONLI

Obyekt nomi: "Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Jo'rabek MFY, Farg'ona yo'li ko'chasi, 55-uy manzilida Mavjud ob'ektni yuridik xujjatga ega qismida, ochiq turdagi shiypon qurish" ishchi loyihasi (texnik qismi)	
Buyurtmachi:	ИСЛОМ ОТА ЖОМЕЪ МАСЖИДИ
Bosh loyihachi:	"MB STUDIO" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	buyurtmachi tomonidan aniqlanadi
Qurilish turi:	Rekonstruksiya
Murojaat raqami:	050833

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Toshkent shahar Yashnobod tumani qurilish bo'limi tomonidan 2024-yil 07-avgustda berilgan 132540762-sonli ruxsatnomasi.

1.2. Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2024-yil 23-avgustda berilgan 1726-1726290-196992-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig'i.

1.3. Belgilangan tartibda kelishilgan va 2024-yil buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig'i.

1.4. «O'ZGAShKLITI» MChJ tomonidan 2024-yilda bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi xulosa.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra ishchi loyihaning elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyiha hujjatlari.

- tushuntirish xati
- bosh reja (GP);
- arxitektura yechimlari (AR);
- konstruktiv yechimlar (KJ);
- elektr ta'minoti (EO);

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino					
Turi	**Nomi**	**Qavati**	**Qurilish maydoni**	**Umumiy maydoni**	**Xajmi**
Yordamchi bino	OCHIQ TURDAGI SHIYPON	1	2778	4945	31255
Jami:			**2778**	**4945**	**31255**

3.1. Qurilish maydonchasining ma'lumotlari.

Normativ shamol bosimi - Wo = 0,38 kPa.

Normativ qor qatlami vazni - Sn = 0,50 kPa.

Hudud zilzilabardoshlik - 8 ball.

Tuproq – lyossimon qumloq, qum-tosh aralashmasi.

Tuproq cho'kuvchanligi bo'yicha toifasi – I (birinchi).

Yer osti suvlari yer sathidan 5.5-5.6 m chuqurlikda joylashgan.

Tuproq-gruntlarning muzlash chuqurligi – 0,70 m.

3.2. Arxitektura – rejalashtirish yechimlari.

Ochiq turdagi shiypon (naves) – bir qavatli, murakkab shaklda bo'lib, umumiy o'lchamlari 70.41x47.82m. balandligi 7.85m (poldan shiftgacha).

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari

Qurilish maydoni - 2778.2 m^2

Umumiy maydoni - 4945.3 m^2

Qurilish hajmi - 31255.5 m^3.

Pardozlash:

Devorlar – "travertin" tosh.

Poypesh – keramogranit plita bilan qoplangan.

Shift – gipsokarton bilan qoplangan.

3.3. Konstruktiv yechimlari.

Binolarning konstruktiv yechimi – monolit temirbeton karkas.

Poydevori – alohida turuvchi monolit temirbeton.

Ustunlar – kesimi 600x600mm bo'lgan monolit temirbeton.

Tom yopma – metal konstruksiya (ferma) dan iborat.

Tom qismi – metall konstruksiyalar bo'ylab "sendvich" panellari.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Elektr ta'minoti

Elektr ta'minotining ishonchlilik darajasi bo'yicha ob'ektning iste'molchilari III toifadagi elektr ta'minoti sifatida qabul qilingan.

O'rnatilgan quvvat – 40.59 kVt.

Hisobiy quvvat – 35.25 kVt.

Kabel markasi – VVGng-0.66.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilgan va kelishilgan:

- Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi (2024-yil 18-oktyabrdagi 148944894-sonli xulosa).

- O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi davlat ekologik ekspertizasi markazi, Toshkent shahar filiali (2024-yil 24-dekabrdagi 01-02/14-3372-sonli ekologik ekspertiza xulosasi).

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko‘rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, konstruktiv yechimlari izohlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

6.3. Buyurtmachiga loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.4. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishinni ta’minlaydi.

6.6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29-bandiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 ga asosan «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma’lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlarning ishonchliligi bo‘yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo‘yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. “Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Jo‘rabek MFY, Farg‘ona yo‘li ko‘chasi, 55-uy manzilida Mavjud ob’ektni yuridik xujjatga ega qismida, ochiq turdagi shiypon qurish” ishchi loyihasi (texnik qismi) ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqib, kelishishga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Avazov Xashimjon To‘rabayevich.

Ishtirokchi ekspertlar: Musayev Rustam Talatovich, Maxmudov Sobir Rashidovich